

# PLITONIT

PROFESSIONAL BO'LISH OSON



## PLITONIT BetonKontakt – silliq va kuchsiz singdiruvchi asoslarni tayyorlash uchun adgezion praymer



Mahsulot suv shimuvchanligi past bo'lgan asoslar (monolitli beton, yopma plitalar, beton bloklar, sement suvoqlari va hokazo)ga suvoq qilish, pardozlash va pol yotqizish ishlaridan oldin dastlabki ishlov berish uchun mo'ljallangan. Yuqori qoplama qobiliyatiga ega bo'lib, beton devor va pollarni gruntovka qilish ustidan qoplanadigan – sement, gips, ohak-sement, ohak-gips va polimer tarkibli qoplamalarning yopishish xususiyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

**Qadoqlash - 1,5 kg, 4,5 kg, 15 kg plastik chelak.**

- Beton uchun ixtisoslashtirilgan grunt
- Foydalanishga tayyor
- Gruntovka ham ichki, ham tashqi ishlar uchun mos keladi
- Cho'tka yoki valik bilan oson surtiladi
- Aralashmadan suv oqishiga to'sqinlik qiladi

### Material sarfi

250 g/m<sup>2</sup>.

### Ish olib borish sharoitlari

Ishlarni amalga oshirish vaqtida havo va asosning harorati +5 °C dan kam bo'lmasligi kerak.

### Asosni tayyorlash

Gruntlashdan oldin yuza chang, loy, yog', qatlamlanib ketadigan elementlardan tozalanadi.

### Ishlash tartibi

Gruntni bir xil holatga kelgunicha aralashtiriladi. BetonKontakt grundi tayyorlangan yuzaga cho'tka yoki valik bilan surtiladi. Qurish vaqti – taxminan 3 soat.

### Diqqat

Qo'llashdan oldin gruntni yaxshilab aralashtirish kerak. Asbob va idish qo'llanilgandan keyin darhol suv bilan yuviladi. Ko'rsatilgan xarakteristikalar atrof-muhit harorati 20+2 °C, havoning nisbiy namligi 60+10% bo'lganda haqiqiy hisoblanadi. Ishlarni bajarishda siz umumiy qurilish ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar va qurilishda xavfsizlik choralariga amal qilishingiz kerak.

## **Ehtiyot choralari**

Ishlarni bajarishda qo'ldoplardan foydalaning. Dispersiyaning teriga va ko'zlarga tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ko'z bilan aloqa qilganda, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang!

## **Tashish va saqlash shartlari**

-40 °C dan +40 °C gacha bo'lgan haroratda zich yopilgan idishda, to'g'ridan to'g'ri quyosh nurlaridan saqlang. -40 °C haroratda 5 martagacha muzlatishga ruxsat beriladi, eritilgandan keyin u o'z xususiyatlarini saqlab qoladi. Eritishni xona haroratida to'liq eriguncha, majburiy ravishda qizdirmasdan amalga oshirish kerak. Eritilgandan so'ng, praymerni ishlatishdan oldin yaxshilab aralashtirish kerak. Ishlab chiqaruvchining ochilmagan tarasida saqlash muddati - ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy. Ishlab chiqarilgan sanasi qadoqlashga qarang.

## **Tarkibi**

Sintetik polimerlar va mineral to'ldiruvchilarning suvli dispersiyasi. Mahsulot tarkibida erituvchilar mavjud emas. Yong'indan xavfsiz. Yonuvchan emas.

## **Ishlab chiqaruvchi kafolati**

Ishlab chiqaruvchi iste'molchi tomonidan tashish, saqlash shartlariga va ushbu yo'riqnomaning ko'rsatmalariga rioya qilinganda mastikaning TU 2241-001-51552155-2013 talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Ishlab chiqaruvchi material bilan ishlash texnologiyasiga rioya qilmagan taqdirda, shuningdek uni mazkur yo'riqnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda va shartlarda qo'llaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

### **1,5 kg chelak uchun logistik ma'lumotlar**

Individual shtrix-kod 4607013044890

Guruh shtrix-kodi 14607013044897

Qutidagi chelaklar soni – 12 dona.

Palletdagi chelaklar soni – 288 dona

### **4,5 kg chelak uchun logistik ma'lumotlar**

Individual shtrix-kod 4607013044906

Palletdagi chelaklar soni – 96 dona.

### **15 kg chelak uchun logistik ma'lumotlar**

Individual shtrix-kod 4607013044913

Palletdagi chelaklar soni – 44 dona